



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

Республика Шахарсозлик экспертизаси

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel. 244-04-85, E-mail: davexpertiza@exat.uz,
devexpertiza@umail.uz www.mc.uz

Yig'ma ekspert xulosasi № 108298

Obyekt nomi «Toshkent shahar, Bektemir tumani, Yuqori-Chirchiq ko'chasi, 64-uy manzili xududida mavjud "Bir qavatli turar-joy binosini o'rta qavatli turar-joy" binosi sifatida ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish»

Buyurtmachi - Bektemir tumani hokimligi uchun "ZAMIN GREAT CITY" MChJ

Bosh loyihachi - "MODUL GROUP PLUS" MChJ

Litsenziya AL-001557 25.12.2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - Buyurtmachining o'z mablag'lari

Bosh pudratchi - Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi

Qurilish turi Yangi qurilish

Murojaat raqami: № 98106

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. Toshkent viloyati Zangiota tumani hokimining 18.12.2020-yildagi 1671-sonli qarori.
- 1.2. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi Bektemir tumani qurilish bo'limi tomonidan 24.08.2021-yilda berilgan 1726264-10220-sonli ruxsatnoma.
- 1.3. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 31.10.2022-yilda berilgan 1727-1727237-10206-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.
- 1.4. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Davlat va shartnomaviy xizmatlarni rivojlantirish filiali tomonidan 17.05.2023-yilda berilgan 01/2069-sonli Texnik shartlar.
- 1.5. "Hududgaz Poytaxt" GTF tomonidan 12.06.2023-yilda tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirish uchun berilgan 025604-sonli Texnik shart.
- 1.6. "O'zsuvta'minot Toshkent shahar suv ta'minoti" MChJ tomonidan 25.05.2023-yilda berilgan 270/4-1456-sonli Texnik shartlar.
- 1.7. Belgilangan tartibda kelishilgan va tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.
- 1.8. "Stroy Max projekt" MChJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Loyiha tarkibiga ko'ra "Toshkent shahar, Bektemir tumani, Yuqori-Chirchiq ko'chasi, 64-uy manzili xududida mavjud "Bir qavatli turar-joy binosini o'rta qavatli turar-joy" binosi sifatida ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish" obyektining elektron shaklda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari va loyiha oldi

hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish maydonining ma'lumotlari.

Shamol tezligining normativ bosimi – 0,38 kPa;

Qor to'shamasining normativ og'irligi – 0,50 kPa.

Hudud zilzilaviyligi – 8 ball.

Tuproqning seysmik xususiyatiga ko'ra toifasi– II (ikkinchi).

Yer osti suvlari yer sathidan 2,1-2,2 metr chuqurlikda aniqlangan.

Tuproqlarning muzlash chuqurligi – 0,70 metr.

3.2. Arxitekturaviy yechimlari.

Bosh reja loyihasiga ko'ra quyidagilar ko'zda tutilgan:

-7 qavatli mansardali turar-joy binosi;

-besedka 2 dona;

-bolalar maydonchasi;

-avtoturargoh;

-metall to'siqlar va eshik;

-ichki yo'laklar va boshqalar.

Binoni joylashtirish yong'in va sanitariya standartlariga muvofiq ishlab chiqarilgan va loyihaning qurilish va texnologik qismlariga qo'yiladigan talablar asosida loyihalangan. Bino atrofida yong'in xavfsizligi qoidalariga binoan o't o'chirish yo'lagi ko'zda tutilgan hamda yondosh binolari oraliq masofasi inobatga olingan. Bosh rejaga ko'ra obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari ko'zda tutilgan.

Hudud atrofidagi binolar:

-shimoldan – o'rta qavatli turar-joy binolari;

-sharqdan- o'rta qavatli turar-joy binolari;

-janubdan- o'rta qavatli turar-joy binolari;

-g'arbdan- o'rta qavatli turar-joy binolari bilan chegaradosh.

Arxitektura - qurilish qismi:

Turar joy binosi yerto'lali 7 qavat mansardali to'rtburchak shaklida bo'lib, o'qlari bo'yicha o'lchamlari 22,2x9,4 metrni tashkil etadi. Bino qavatlarining poldan shiftgacha balandligi quyidagicha, yerto'la h=2,70 metr, 1-2-3-4-5-6-7-qavatlar h=2,85 metr va mansarda yuqori qismigacha h= 3,348 metr.

Binoning yerto'la qavatida texnik va yordamchi xonalar, 1-7 qavatlar hamda mansarda qismida xonadonlar rejalashtirilgan. Qavatlar orasidagi aloqa zinapoya va 600 kg yuk ko'tarish qobiliyatiga ega yo'lovchi lift yordamida amalga oshiriladi.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Qurilish maydoni - 224,73 m²;

Qurilish umumiy maydoni- 224,73 m²;

Umumiy hajmi - 5778,93 m³.

Ichki pardoqlash:

Devorlar va pardevorlar – pishiq g'isht 380 mm va pardevorlar 100, 150, 200 mm qalinlikda gazbeton blokidan, keramik plita, suv emulsiyasi bo'yoqlar bilan bo'yaladi.

Pol – keramik plitka, laminat va keramogranit.

Eshiklar – xonadonga kirish eshiklari metall va ichki eshiklar MDF.

Shift – plastik, suvoq, suvli bo'yoq bilan bo'yaladi.

Tashqi pardoqlash:

Devorlari – bazalt, yakunlovchi suvoq ustidan travertin.

Poypesh – jigarrang itallogranit.

Romlar va vitrajlar – plastik PVX va alyumin profil.

3.3. Konstruktiv yechimlar.

Binoning konstruktiv tizimi qattiqshtiruvchi diafragma bilan monolit temir-beton karkas.

Poydevorlar - 800 mm qalinlikdagi monolit plitalar - B20;

Ustunlar - monolit temir-beton 500x500mm, 450x450mm, 400x400mm sinf. IN 20;

To'sinlar - 400x400 mm sinfdagi monolit temir-beton. IN 20;

Devorlar - 380 mm qalinlikdagi pishiq g'isht;

Orayopmalar - g'ovakli quyma temir-beton plita.

Zinapoya - monolit temir-beton;

Tom qismi metall konstruksiya ustidan profnastildan qoplanishi ko'zda tutilgan.

3.4. Yong'inga qarshi texnik yechimlar.

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi - II tipga mansub.

Konstruktiv yong'in xavf sinfi - F1.3.

Binoning konstruktiv yong'in xavf sinfi - C1.

3.5. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

-binoning tashqi devorlari issiqlik ushlovchi bazalt qoplamasi bilan qoplangan;

-binoning tom qismi issiqlik ushlovchi bazalt qoplamasi bilan qoplangan;

-devorlar, qoplamalar va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo'llangan, shuningdek deraza va eshiklar konstruksiyalari issiqlik texnikasiga oid hisob-kitoblarga muvofiq ishlangan;

-binoda quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Turar joy binosi barcha muhandislik tizimlari bilan ta'minlangan: suv ta'minoti va oqava suv tarmog'i, isitish, shamollatish va sovutish, elektr yoritish va elektr ta'minoti, aloqa tarmoqlari va boshqa tarmoqlar

texnik shartlarga muvofiq muhandislik tarmoqlariga ulanadi. Barcha ichki muhandislik ta'minotiga tarmoqlariga ulanish ishlari Arxitektura - rejalashtirish topshirig'ida ko'rsatilgan manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlariga muvofiq amalga oshiriladi. Tashqi muhandislik ta'minotiga tarmoqlariga ulanish uchun alohida ishchi loyiha ishlab chiqib ijobiy ekspertiza xulosasi olingandan so'ng, tashqi muhandislik ta'minotiga tarmoqlarini qurish ishlari amalga oshirishi lozim.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 17.05.2023-yilda berilgan 71726-sonli xulosa.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 29.05.2023-yilda berilgan 01-01/04-1039-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosa.

5.3. o'zbekiston Respublikasi Nogironlar jamiyati Toshkent shahar bo'limining 22.05.2023-yildagi 61/05-sonli xati.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1 Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, ichki muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo'yicha e'tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. *Yer ishlarini bajarishdan oldin, kutilmagan holatlarning oldini olish uchun, mavjud bo'lgan yer osti muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalarining haqiqiy joylashuvini, mahalliy ekspluatatsiya xizmatlari vakillari bilan aniqlash zarurligi ta'kidlanadi.*

6.3. Ekspertiza jarayonida soxalar ekspertlari xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.4. Ekspert tekshiruvi natijalariga ko'ra QQS bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 17 410 469,741 ming so'm miqdorida topshirilgan ishlar qiymati 4 889 886,474 ming so'm iqtisod qilinib, 12 520 583,267 ming so'm qilib belgilandi, shu jumladan:

- Qurilish montaj ishlari – 9 997 694,723 ming so'm;

- Uskuna va jihozlar – 1 181 397,480 ming so'm;

- QQS – 1 341 491,064 ming so'm.

Qurilish narxining pasayishi materiallar narxlarini qayta ko'rib chiqish, inert materiallar uchun xaridlarni va saqlash xarajatlarini istisno qilish, koeffitsientni pasaytirish va me'yorlar hisobidan shakllantirildi.

Chet el uskunolari, mebel va inventarlarning narxi ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmadi.

6.5. Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalariga ko'ra, amalda bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

6.6. Loyihachi loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachiga ekspertiza xulosalarida ko'rsatilgan sharxlar bo'yicha to'g'irlab tasdiqlangan holda taqdim etadi.

6.7. Ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish tavsiya etiladi.

6.8. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.9. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 255-son qarori talablariga rioya etilsin.

6.10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qaroriga muvofiq 4-ilova, II bob 8-band va ShNQ 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

Ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda "Toshkent shahar, Bektemir tumani, Yuqori-Chirchiq ko'chasi, 64-uy manzili xududida mavjud "Bir qavatli turar-joy binosini o'rta qavatli turar-joy" binosi sifatida ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish" obyektining ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: KAMBAROV GIYOSBEK SAYFIDINOVICH

Ishtirokchi ekspertlar:

SHAKUROV RAFAEL FAXRAZEYEVICH

Olxovskaya Viktoriya Kamilovna

Musayev Rustam Talatovich

KOSHERBAEV MURATBEK ABATOVICH

UMAROV FAYZULLO SAYDULLA O'G'LI

GULYAMOV NADJIMITDIN SHARAFUTDINOVICH

MIRBOBAYEV ZAKIR XUSNITDINOVICH

UBAYDULLAYEV AZIZBEK BAXODIROVICH

Экспертизага АРИЗА [Faylni ko'rish](#)

Лойихалашга хат [Faylni ko'rish](#)